



UDK:81'37(045)575.1)

**Maftunabonu XOLJO'RAYEVA,**  
ToshDO'TAU tayanch doktranti  
E-mail: maftunabonuxoljoraeva@gmail.com

ToshDO'TAU dotsenti, PhD Z.Teshaboyeva taqrizi asosida

## SYNONYMY AND ANTONYMY IN UZBEK-ENGLISH SOCIO-POLITICAL TERMS

Annotation

This article analyzes the linguistic features of synonymy and antonymy in Uzbek-English socio-political terms. The semantic field of political terminology, their equivalents in translation, as well as the subtle meanings of synonymic series and antonymic pairs are comparatively studied.

**Key words:** Socio-political term, synonymy, antonymy, translation, equivalence, Semantics, synonymous layer, semantic proximity, ideological loading, political discourse.

## СИНОНИМИЯ И АНТОНИМИЯ В УЗБЕКСКО-АНГЛИЙСКИХ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ТЕРМИНАХ

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические особенности синонимии и антонимии в узбекско-английских социально-политических терминах. Рассмотрены семантическое поле политических терминов, их эквиваленты в переводе, а также смысловые нюансы синонимических рядов и антонимических пар

**Ключевые слова:** Социально-политический термин, синонимия, антонимия, перевод, эквивалентность, семантика, синонимический слой, семантическая близость, идеологическая нагрузка, политический дискурс.

## O'ZBEKCHA-INGLIZCHA IJTIMOY-SIYOSIY TERMINLARDA SINONIMIYA VA ANTONIMIYA

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbekcha-inglizcha ijtimoiy-siyosiy terminlarda sinonimiya va antonimiyaning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Siyosiy terminlarning semantik maydoni, ularning tarjimada ekvivalentlari hamda sinonimik qatorlar va antonimik juftliklarning ma'no nozikliklari qiyosiy o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy-siyosiy termin, sinonimiya, antonimiya, tarjima, ekvivalentlik, semantika, sinonimik qatlam, semantik yaqinlik, ideologik yuklama, siyosiy diskurs.

**Kirish.** Bugungi globallashuv davrida turli xalqlar biri-biri bilan faol muloqot qilmoqda. Bu jarayon til va tarjima masalalarini yanada dolzarb qiladi. Ayniqsa, siyosiy matnlarda ishlatiladigan terminlar davlatlararo hamkorlikni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Tilshunoslikda sinonimiya va antonimiya qadimdan til tizimining asosiy semantik hodisalari sifatida o'rganilgan. Ammo ijtimoiy-siyosiy terminlarda bu hodisalar yanada murakkab tus oladi, chunki bunday terminlarda semantika bilan bir qatorda ideologik yuklama ham mavjud. Shu bois sinonimiya va antonimiyaning o'zbekcha-inglizcha ijtimoiy-siyosiy terminlardagi xususiyatlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sinonimiya va antonimiya masalalari tilshunoslikda qadimdan muhim o'rin egallab keladi. O'zbek tilshunosligida bu soha bilan G'. Salomov, F. Saidov, N. Jo'rayev, Sh. Rahmatullayev kabi olimlar shug'ullangan. Jumladan, G'. Salomov til tizimidagi sinonimik qatlamning nutqiy boylikni oshirishdagi o'rini alohida ta'kidlaydi. F. Saidov esa antonimik juftliklarning siyosiy va publitsistik matnlarda qarama-qarshi g'oyalarni ifodalashdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Ingliz tilshunosligida sinonimiya va antonimiya masalalari G. Leech, J. Lyons, L. Bloomfield kabi mashhur tilshunoslar asarlarida keng o'rganilgan. Masalan, J. Lyons sinonimik qatorlarning semantik yaqinlik bilan bir qatorda uslubiy farqlanishni ham

taqozo etishini, shuning uchun tarjimada sinonimlar tanlash masalasi nihoyatda mas'uliyatli ekanini qayd etadi.

Ijtimoiy-siyosiy terminologiya bo'yicha esa N. Jo'rayevning "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning lingvistik xususiyatlari" asari alohida ahamiyatga ega. Unda siyosiy terminlarning semantik maydoni, ideologik yuklamasi va boshqa fan sohalari bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Ingliz tilidagi siyosiy terminlar lug'atlari, jumladan Oxford Dictionary of Politics, shuningdek, Cambridge Dictionary of Political Science ham sinonimiya va antonimiya masalalarini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston siyosiy matnlarida sinonim va antonim terminlarning qo'llanishi haqida ayrim maqolalar e'lon qilindi. Xususan, Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqlari bo'yicha chop etilgan tahliliy ishlarda "peace – war", "security – threat", "development – stagnation" kabi antonimik juftliklar xalqaro diplomatik nutqlarda qanday ideologik yuklama kasb etishi o'rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan K. Allan va K. Burridge siyosiy diskursdagi sinonim va antonimlarning "euphemism" va "dysphemism" jarayonlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ularning fikricha, siyosiy matnlarda sinonimlar ko'pincha ijobiy konnotatsiyani kuchaytirish, antonimlar esa qarama-qarshi g'oyalarni ta'kidlab ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sinonimiya va antonimiya umumiy tilshunoslik

nuqtayi nazaridan yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, ularning o'zbekcha-inglizcha ijtimoiy-siyosiy terminlardagi xususiyatlari alohida va kompleks tadqiqot talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot o'zbekcha-inglizcha ijtimoiy-siyosiy terminlarda sinonimiya va antonimiyaning aniqlash va qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Shu bois quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Qiyosiy-lisoniy tahlil usuli. O'zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar qiyoslab o'rganildi, ularning semantik yaqinligi va qarama-qarshilik belgilari aniqlanib, sinonimik qatorlar va antonimik juftliklar belgilandi.

2. Korpus tahlili. Asosiy material sifatida Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari hamda Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi tanlandi. Shuningdek, BBC News, Xalq so'zi, Whitehouse.gov, UzA kabi manbalardan siyosiy matnlar qo'shimcha sifatida o'rganildi.

3. Semantik tahlil usuli. Sinonim va antonim terminlarning semantik maydoni, ma'no nozikliklari, ideologik yuklamasi va tarjimada ekvivalent topish muammolari chuqur tahlil qilindi.

4. Lingvopragmatik yondashuv. Terminlarning siyosiy nutqda qanday kommunikativ vazifa bajarayotgani, ularning ta'sirchanlik va ijtimoiy funksiyalari tahlil qilindi. Masalan, "peace – war" antonim juftligi xalqaro minbarda siyosiy pozitsiyani aniq ifodalashga xizmat qilishi ko'rsatildi.

5. Ilmiy manbalardan foydalanish. Sinonimiya va antonimiya bo'yicha klassik va zamonaviy tilshunoslarning nazariy qarashlari (J. Lyons, G. Leech, G. Salomov, F. Saidov va boshqalar) tahlilga metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda o'zbekcha-inglizcha ijtimoiy-siyosiy terminlarning sinonimik qatorlari va antonimik juftliklari alohida guruhlangan, ularning

tarjimadagi ekvivalentlik darajasi aniqlangan va siyosiy matnlarda kommunikativ-pragmatik o'rni ko'rsatib berilgan.

1. Sinonimiya hodisasi. Ijtimoiy-siyosiy terminlarda sinonimiya hodisasi keng qo'llanadi. Sinonim so'zlar matnni emotsional va uslubiy jihatdan boyitadi, o'quvchi yoki tinglovchi ongida muayyan tushunchaning yanada mustahkam o'rinishiga yordam beradi.

Masalan: Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asarida taraqqiyot va rivojlanish terminlarini bir xil kontekstda ishlatib, mamlakatning strategik maqsadlarini ifodalagan. Ingliz tilida bu atamalar development va progress shaklida qo'llaniladi.

Shavkat Mirziyoyev BMT minbarida nutq so'zlar ekan, barqarorlik va taraqqiyot terminlarini qo'llab, mamlakatning asosiy maqsadlari sifatida taqdim etadi (stability and development).

Barak Obama esa 2009-yil inauguratsiya nutqida hope va courage (umid va jasorat) sinonimik qatorini ishlatib, millatni birlashtiruvchi kuch sifatida ta'riflagan.

2. Antonimiya hodisasi. Antonimlar siyosiy matnlarda kontrast hosil qilib, muammoning keskinligini ko'rsatadi. Bu hodisa auditoriyani fikrlashga undaydi va muhim g'oyalarni kuchliroq yetkazishga xizmat qiladi.

Masalan: Obama (2011, Qohira nutqi): "Peace is more powerful than war" – bu jumladan peace – war antonimik qarama-qarshiligi global barqarorlik masalasini yoritadi.

Obama (2013, inauguratsiya): "Democracy versus tyranny" – demokratiya va zolimlik kontrasti orqali AQShning siyosiy qadriyatlarini ta'kidlangan.

Mirziyoyev (2017, BMT nutqi): "Xavfsizlikka tahdid soluvchi urushlar" iborasida security – threat antonimiyalari qo'llangan.

Mirziyoyev (2022, BMT nutqi): "Insonparvarlik – zo'ravonlik" juftligi zamonaviy xalqaro muammolarga nisbatan O'zbekiston pozitsiyasini bildiradi.

#### 1. Sinonimik ijtimoiy-siyosiy terminlar jadvali

| № | O'zbekcha termin       | Inglizcha ekvivalenti | Uslubiy izoh                                                                |
|---|------------------------|-----------------------|-----------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Taraqqiyot-rivojlanish | Development-progress  | Taraqqiyot ko'proq iqtisodiy, rivojlanishga ijtimoiy jarayinlarga taalluqli |
| 2 | Barqarorlik-taraqqiyot | Stability-development | Davlat siyosiy maqsadlarining uyg'unlashuvi                                 |
| 3 | Ozodlik-huquq          | Freedom-rights        | Inson huquqlari va adolatni ifodalaydi                                      |
| 4 | Umid-jasorat           | hope-courage          | Milliy birlikni mustahkamlovchi emotsional sinonimlar                       |
| 5 | Erkinlik-qadr-qimmat   | Freedom-dignity       | Inson qadri va huquqlarini sharhlovchi sinonimlar                           |

#### 2. Antonimik ijtimoiy-siyosiy terminlar jadvali

| № | O'zbekcha termin               | Inglizcha ekvivalenti          | Uslubiy izoh                                     |
|---|--------------------------------|--------------------------------|--------------------------------------------------|
| 1 | Tinchlik-urush                 | Peace-war                      | Global barqarorlik masalasini yoritadi           |
| 2 | Demokratiya-diktatura/zolimlik | Democracy-dictatorship/tyranny | Siyosiy tizimlar kontrasti                       |
| 3 | Xavfsizlik-tahdid              | Security-threat                | Xalqaro xavfsizlik muammolarini ko'rsatadi       |
| 4 | Barqarorlik-mojaro             | Stability-conflict             | Tinchlik va keskinlikning qarama-qarshiligi      |
| 5 | Insonparvarlik-zo'ravonlik     | Humanism-violence              | Global muammolarni ifodalovchi asosiy antonimiya |

**Natijalar.** Tahlil shuni ko'rsatdiki:

1. Ijtimoiy-siyosiy terminlarda sinonimiya va antonimiya siyosiy nutqning mazmunini kuchaytiruvchi va ideologik yuklama beruvchi asosiy vositalardan hisoblanadi.

2. O'zbekcha-inglizcha tarjimada sinonim va antonimlarning ekvivalentlarini tanlashda kontekst va madaniy omillar muhim rol o'ynaydi.

3. Sinonimik terminlar matnga stilistik boylik qo'shadi, antonimik terminlar esa siyosiy pozitsiyani kontrast asosida ifodalaydi.

4. Tarjimadagi muammolar ko'proq semantik nozikliklarni saqlab qolish va ekvivalent topishda yuzaga chiqadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sinonimiya va antonimiya ijtimoiy-siyosiy

terminlarning semantik tizimini tashkil etuvchi muhim unsurlardir. Ularning o'zbek va ingliz tillaridagi qo'llanishi siyosiy matnlarning mazmunini boyitadi, ta'sirchanligini oshiradi va ideologik yuklamani kuchaytiradi.

O'zbek va ingliz tillaridagi sinonimik terminlar bir xil tushunchani turli uslubiy yoki semantik ranglarda ifodalaydi. Tarjimada sinonimlardan kontekstga mosini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Antonimik terminlar siyosiy nutqda qarama-qarshiliklarni aniq ko'rsatib, tinglovchiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Ular xalqaro diplomatik matnlarda eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan biridir. Tarjima jarayonida sinonim va antonim terminlarning ekvivalentlarini topishda ko'plab muammolar mavjud. Ayrim hollarda o'zbek tilidagi sinonimik qator ingliz tilida bir so'z bilan ifodalanadi, natijada ma'no nozikligi yo'qolib ketishi mumkin. Siyosiy matnlarda

sinonimiya va antonimiyaning lingvopragmatik vazifasi yetakchi o'rin tutadi. Ular nafaqat mazmunni ifodalash, balki auditoriyaga ideologik ta'sir ko'rsatish uchun ham xizmat qiladi.

**Takliflar.** Siyosiy terminlarni tarjima qilishda kontekst, nutq vaziyati va madaniy omillar hisobga olinishi lozim. O'zbekcha–inglizcha ijtimoiy-siyosiy lug'atlarda sinonimik va antonimik terminlar alohida qayd etilishi, ularning

ma'no farqlari izohli tarzda berilishi foydali bo'ladi. Siyosiy matn tarjimonlari sinonimiya va antonimiyaning semantik hamda pragmatik xususiyatlarini chuqur o'rganishi, nutqiy strategiyalarni hisobga olishi zarur. Keyingi tadqiqotlarda sinonimiya va antonimiyaning qo'llanishi faqat siyosiy matnlarda emas, balki huquqiy, diplomatik va publitsistik nutqlarda ham kengroq o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Mirziyoyev Sh. BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi. – Nyu-York, 21-sentabr, 2021. ([www.uza.uz](http://www.uza.uz), [www.un.org](http://www.un.org))
3. Salomov G'. Tilshunoslik nazariyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1983.
4. Saidov F. O'zbek tilida antonimiya hodisasi. – Toshkent: Fan, 1985.
5. Jo'rayev N. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2005.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2006.
7. Lyons J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
8. Leech G. Semantics: The Study of Meaning. – London: Penguin, 1981.
9. Bloomfield L. Language. – New York: Holt, 1933.
10. Allan K., Burridge K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
11. Oxford Dictionary of Politics. – Oxford: Oxford University Press, 2018.
12. Cambridge Dictionary of Political Science. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
13. Whitehouse.gov – Rasmiy veb-sayt. ([www.whitehouse.gov](http://www.whitehouse.gov))
14. BBC News – Siyosiy maqolalar bo'limi. ([www.bbc.com/news/politics](http://www.bbc.com/news/politics))
15. Xalq so'zi gazetasi – Rasmiy siyosiy chiqishlar arxivi. ([www.xs.uz](http://www.xs.uz))